

MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT BOZORINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich

Namangan davlat texnika universiteti

Menejment kafedrasi mudiri, professori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

E-mail: mullabaev.bahtiyor@gmail.com,

tel: +998939486868

Mirtoev Axrorbek Abdulpattoyevich

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar kompleks tahlil qilinadi. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi global miqyosda strategik muammo sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, har bir hududda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga samarali yetkazish tizimini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorining iqtisodiy, institutsional va tashkiliy asoslari yoritildi. Jumladan, Namangan viloyati misolida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozordagi o'rni, raqobat muhitining shakllanishi, narxlarning barqarorligi va iste'molchilarning xarid imkoniyatlari o'rganildi. Oziq-ovqat ta'minot zanjiridagi logistik infratuzilmaning sifati, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining agrosanoat kooperatsiyalarida ishtiroki, savdo infratuzilmasi lohida tahlil qilindi. Shuningdek, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan strategik hujjatlar, jumladan "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi", "Qishloq xo'jaligi sohasini transformatsiya qilish strategiyasi" va boshqa normativ-huquqiy bazalar orqali bozordagi institutlarning mustahkamlanishi va mahalliy iqtisodiyotga ta'siri ochib berildi. Maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorini kompleks boshqarish va samarali rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat bozori, hududiy rivojlanish, logistika, agrosanoat, narxlar barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, barqaror ishlab chiqarish va iste'mol tizimlarini shakllantirish har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanmoqda. Jahon bozorida yuzaga kelayotgan narx o'zgarishlari, logistik zanjirlarning uzilishi, tabiiy resurslarning cheklanishi, global iqlim o'zgarishlari hamda geosiyosiy beqarorlik kabi omillar mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarining shakllanishi va ularning barqaror faoliyat yuritish zaruratini kuchaytirmoqda.

Xususan, O'zbekiston sharoitida hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar, infratuzilma rivojlanganlik darajasidagi farqlar, transport va logistika tizimining bir xillikdan yiroqligi, aholining turli guruhlari o'rtasida xarid qobiliyatining farqlanishi mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarini shakllantirishda strategik yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi kunda har bir viloyatning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, o'z ehtiyojlarini qondirish bilan birga qo'shni hududlarga ham mahsulot yetkazib berish salohiyatini kuchaytirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda bu borada O'zbekiston Respublikasida muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan:

“O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha 2022–2030-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya” (Prezident qarori PQ–263-son, 2022-yil 30-iyun) orqali hududlarda oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish, agrologistika infratuzilmasini kengaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish ko‘zda tutilgan;

“Qishloq xo‘jaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi”da esa oziq-ovqat yetkazib berishning barqaror zanjirini yaratish, mintaqaviy agroklastlar tizimini rivojlantirish va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish kabi masalalar alohida belgilab qo‘yilgan;

Prezident farmoni PF–60-son (2022-yil, 28-yanvar) — “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” doirasida hududiy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash alohida band sifatida kiritilgan.

Mazkur hujjatlar asosida qabul qilinayotgan dasturlar mintaqaviy oziq-ovqat bozorini shakllantirishda davlatning rolini belgilash bilan birga, xususiyl sektorini rag‘batlantirishga ham qaratilgan. Ayniqsa, agrostartaplar, dehqon xo‘jaliklari, kooperatsiya asosida tashkil etilayotgan agroklastlar va logistika kompaniyalarining faol ishtiroki bu jarayonlarda muhim omilga aylanmoqda.

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorlari — bu oddiygina mahsulot ayirboshlash maydoni emas, balki hudud iqtisodiyoti barqarorligi, aholining ijtimoiyl himoyasi, bandlik va sog‘lom raqobat muhitining shakllanishi uchun zarur platformadir. Shu bois, ushbu maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishini tizimli asosda o‘rganish, uning institutsional, iqtisodiy va tashkiliyl mexanizmlarini tahlil qilish asosida amaliyl takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalaga oid nazariyl va amaliyl tadqiqotlar soni global miqyosda tobora ortib bormoqda. Jahon banki, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), OECD hamda mahalliy olimlarning ishlari ushbu yo‘nalishda muhim ilmiyl asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

FAO (2022) tomonidan e‘lon qilingan “The State of Food Security and Nutrition in the World” hisobotida oziq-ovqat tizimlarini mintaqaviyl darajada barqaror tashkil etish bozor ishtirokchilari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan siyosat va infratuzilmaning mavjudligi bilan bevosita bog‘liqligi ta‘kidlangan [1]. Mazkur yondashuv mintaqaviyl ehtiyojlarni qondirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

OECD (2021) tomonidan taqdim etilgan “Agri-food systems for sustainable development” nomli hisobotda esa oziq-ovqat bozorlarining barqaror rivojlanishi uchun agro-sanoat kooperatsiyalari, transport-logistika tizimi va davlat-xususiyl sheriklik modelining roli alohida ko‘rsatib o‘tiladi [2].

Jahon bankining (2020) “Resilient Food Systems” hisobotida esa mintaqaviyl oziq-ovqat xavfsizligi uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta‘minlash, narxlar barqarorligini ushlab turish va ekologik barqarorlikni saqlash zarurligi alohida e‘tirof etilgan [3].

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu yo'nalishda muhim tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, G'afurov U.V. (2021) tomonidan yozilgan "Oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy bozorlar" nomli ishda hududlar kesimida oziq-ovqat bozorlarining shakllanishi, narx shakllanishi va ishlab chiqaruvchilarning taqsimoti iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan [4].

Mullabayev B.B. (2022) "Agrologistika infratuzilmasini hududiy rivojlantirish yo'llari" nomli ilmiy maqolasida esa mintaqaviy logistika zanjirlarining uzviyligi va ular orqali oziq-ovqat mahsulotlarining o'z vaqtida iste'molchiga yetkazilishi iqtisodiy samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan [5].

Shuningdek, "Agromarkaz" ilmiy-tahliliy markazi tomonidan chop etilgan 2022-yilgi tahliliy hisobotda (Namangan viloyati misolida) oziq-ovqat mahsulotlari narxlaridagi mavsumiy tebranishlar, omborxona sig'implarining yetishmasligi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozorga kirishdagi to'siqlari ko'rsatib o'tilgan [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni (2022) va PQ-263-sonli qarori (2022) orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida davlat siyosatining aniq yo'nalishlari, jumladan hududiy logistika infratuzilmasi, subsidiyalar, agrosanoat parklarining kengaytirilishi singari choralar belgilangan [7,8].

Shu asosda aytish mumkinki, mintaqaviy oziq-ovqat bozorlari faqat iqtisodiy masala bo'lib qolmay, u ijtimoiy, ekologik va institutsional jihatdan ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Mavjud adabiyotlar bu masalaning ko'p qirrali xarakterini chuqur tahlil qilish uchun zarur ilmiy asosni taqdim etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes sub'yektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda ekspert so'rovlari natijalari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va barqaror faoliyat yuritishi bir vaqtning o'zida narx barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish va aholining asosiy iste'mol mahsulotlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadval va tahlillar Namangan viloyati va uning tumanlari misolida ushbu muammolarni kompleks o'rganishga imkon beradi.

1-jadval

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik o'zgarishi (so'm/kg)

Mahsulot	2022-yil	2023-yil	O'sish (%)
Un	4700	5100	+8.5
Guruch	8500	9100	+7.0
Kartoshka	4300	4600	+7.0
Go'sht	68000	72000	+5.9
Yog'	18500	19500	+5.4
Piyoz	1800	2900	+61.1
Sabzi	1500	2000	+33.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi; FAO (2023).

Namangan viloyatida aholining xarid qobiliyatini inobatga olgan holda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik o'sish dinamikasi tahlikali ko'rinishga ega. Jumladan, un, guruch, kartoshka, go'sht, yog' kabi asosiy iste'mol mahsulotlari bo'yicha 5–9 foiz atrofidagi o'sishlar qayd etilgan. Bu inflyatsiyaning real hayotdagi ifodasidir. E'tiborlisi shundaki, piyoz va sabzi narxlaridagi keskin sakrashlar – mos ravishda 61,1% va 33,3% – mavsumiy nomuvofiqlik, saqlash infratuzilmasining zaifligi va ichki taklif cheklanganini ko'rsatadi.

Narxlardagi bu o'sishlar faqat bozor mexanizmlari bilan emas, balki institutsional muammolar bilan ham bog'liq. Bular – zaxiralarni boshqarishdagi sustlik, logistik muvozanatsizlik, to'lov qobiliyati past aholi qatlamiga nisbatan himoya mexanizmlarining samarasizligi. Ayniqsa, past daromadli qatlamlar uchun bu narxlar o'sishi oziq-ovqat xavfsizligi tahdidini keltirib chiqaradi.

Strategik yechim sifatida narx prognozlash modellari, mavsumiy intervensiya fondlari, hamda chakana bozorlarda monitoring tizimini kuchaytirish lozim.

2-jadval

Tumanlar kesimida ishlab chiqaruvchi va savdo sub'yektlari soni

Tuman	Fermer xo'jaliklari	Kooperativlar	Logistika kompaniyalari	Bozorlar va savdo punktlari
Namangan shahri	240	45	18	53
Pop	180	32	12	38
Chust	170	28	10	35
Kosonsoy	160	30	9	30
To'raqo'rg'on	150	26	8	28

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi (2023).

Namangan viloyatida oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilarning soni va tuzilmasi tumanlar bo'yicha sezilarli farq qiladi. Namangan shahrida fermer xo'jaliklari, kooperativlar, logistika kompaniyalari va bozorlar soni eng yuqori. Bu infratuzilma rivojlanganligi, investitsiya muhitining qulayligi va aholining katta zichligi bilan izohlanadi.

Pop, Chust, Kosonsoy va To'raqo'rg'on tumanlarida esa logistika infratuzilmasi va kooperatsiya tizimi hali to'laqonli shakllanmagan. Shu sababli bu hududlarda ichki bozor raqobati zaif, logistika zanjiri uzilgan va narxlar barqarorligiga erishish qiyin.

Hududlar o'rtasidagi bu nomutanosiblikni bartaraf etish uchun "hududiy oziq-ovqat klasterlari"ni shakllantirish, ularga soliq imtiyozlari berish, kooperatsiya asosida ishlab chiqarish-zaxira-taqsimot tizimini yaratish lozim.

3-jadval

Mahsulot zaxiralari va ombor sig'imi (tonnada)

Tuman	Un (t)	Guruch (t)	Kartoshka (t)	Omborlar sig'imi (t)
Namangan shahri	1800	1300	950	2500
Pop	1200	980	870	1800
Chust	1100	920	820	1600
Kosonsoy	950	860	790	1400
To'raqo'rg'on	900	800	760	1200

Manba: Qishloq xo'jaligi vazirligi; Agromarkaz (2023).

Mahalliy oziq-ovqat xavfsizligida mahsulot zaxiralari va ularni saqlash infratuzilmasi asosiy omillardan biri sanaladi. Namangan shahrida mahsulot zaxiralari ham, ombor sig'imi ham yuqori bo'lsa-da, boshqa tumanlarda bu ko'rsatkichlar ziddiyatli. Masalan, Pop tumanida 1200 tonna un zaxirasi mavjud, ammo saqlash sig'imi faqat 1800 tonnani tashkil etadi – bu esa zahiraning bir qismini bozorda yoki sharoitga mos bo'lmagan joylarda saqlashga majbur qiladi.

Bu esa mahsulot sifatining pasayishi, narx o'zgarishi va isrofgarchilikka olib keladi. Strategik mahsulotlarni saqlashda zamonaviy sovutkichli, avtomatlashtirilgan, standartga mos infratuzilma zarur. Har bir tuman uchun zarur minimal ombor sig'imi hajmini hisoblab chiqish, ularni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

4-jadval

Mavsumiy narx farqlari (so'm/kg)

Mahsulot	Qish	Yoz	Farq	O'zgarish (%)
Un	5200	4900	300	+6.1%
Guruch	9300	8900	400	+4.5%
Kartoshka	5100	4300	800	+18.6%
Piyoz	2900	1800	1100	+61.1%
Go'sht	75000	69000	6000	+8.7%
Yog'	19800	18800	1000	+5.3%
Sabzi	2200	1600	600	+37.5%

Manba: Davlat statistika qo'mitasi; FAO (2023).

Mavsumiy narx tebranishi bozor barqarorligining muhim ko'rsatkichidir. Un, guruch va go'shtda 5–8% o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa, kartoshka, piyoz va sabzida bu o'zgarishlar 18–61% ni tashkil etadi. Bu keskin tafovutlar mahsulotlarni saqlash va intervensiya mexanizmlarining zaifligi bilan bog'liq.

Narxlar qishda keskin oshib ketayotgani saqlash infratuzilmasining kamligi, davlat ehtiyot zahiralarini nazoratining sustligi va chakana savdo bozorida monopollashuv sababli yuzaga kelmoqda. Ushbu vaziyatda "narxlarni oldindan

belgilash", bozor monitoring tizimlari va logistik ta'minot markazlari orqali taqsimotni markazlashtirish muhim.

Shuningdek, "narx xavfsizlik darajasi" mezonini joriy etib, har bir asosiy mahsulot uchun mavsumiy intervallar bo'yicha narx chegaralarini belgilash lozim.

5-jadval

Logistika markazlari va texnologik darajasi

Tuman	Markazlar soni	Umumiy sig'im (tonna)	Texnologik daraja (1-5)
Namangan shahri	5	12500	5
Pop	3	7200	4
Chust	2	5000	3
Kosonsoy	2	4600	3
To'raqo'rg'on	1	3000	2

Manba: Transport vazirligi; UNDP Uzbekistan (2022-2023).

Logistika markazlari soni va texnologik rivojlanish darajasi mintaqaviy oziq-ovqat bozori barqarorligining kalitidir. Namangan shahrida zamonaviy (5-darajali) markazlar mavjud, ammo To'raqo'rg'on tumanida bu ko'rsatkich eng past – 2-daraja. Bu esa hududlar kesimida mahsulot aylanishi, saqlanish sifati va vaqtida yetkazib berilishi bo'yicha katta nomutanositliklarni yuzaga keltiradi.

Texnologik darajasi past bo'lgan logistika markazlarida mahsulot sifati tez buziladi, bu esa narx tebranishi, isrofgarchilik va ekologik salbiy ta'sirlarni kuchaytiradi. Shu bois, logistika tizimini mintaqaviy darajada diversifikatsiya qilish, avtomatlashtirilgan monitoring, sovutkichli zanjirlar va "raqamli logistika" texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy qilish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining samarali faoliyat yuritishi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u hududlar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada o'tkazilgan tahlillar asosida quyidagilar ilmiy asoslangan tarzda xulosa qilindi:

Birinchidan, Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarining yillik va mavsumiy narx o'zgarishlari aholining real daromadlariga nisbatan yuqori tempda o'sib bormoqda. Ayniqsa piyoz, sabzi, go'sht kabi asosiy iste'mol mahsulotlaridagi 30-60% atrofidagi mavsumiy narx tebranishlari ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat mahsulotni saqlash infratuzilmasining zaifligi, mahsulot taklifidagi mavsumiy uzilishlar va zaxira boshqaruvining yetarli darajada ishlamasligi bilan bog'liq.

Ikkinchidan, viloyat tumanlarida oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi sub'yektlar, kooperativlar, chakana savdo punktlari va logistika kompaniyalari soni o'rtasida sezilarli nomutanositlik mavjud. Namangan shahri bu borada yetakchi bo'lsa-da, To'raqo'rg'on, Kosonsoy kabi chekka hududlarda bu tarmoq zaif shakllangan. Buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlarining tumanlararo taqsimotida uzilishlar, narx tafovutlari va logistik kechikishlar yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, mavjud mahsulot zaxiralari bilan ularni saqlashga mo'ljallangan omborlar sig'imi o'rtasida muvozanat yo'q. Ba'zi tumanlarda mahsulot zaxiralari yuqori bo'lsa-da, sovitkichli va standartga mos saqlash infratuzilmasining yetishmovchiligi tufayli sifat yo'qotilishi, isrofgarchilik va bozorda defitsit yuzaga kelmoqda. Bu esa narxlar o'sishining bevosita sabablaridan biridir.

To'rtinchidan, mintaqadagi logistika markazlarining texnologik darajasi ham har xil bo'lib, bu mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan zanjirda samaradorlikni pasaytiradi. Ayniqsa sovitkichli logistika zanjiri yo'qligi, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarining cheklanganligi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari bozorida narx tebranishlari kuchaymoqda.

Ushbu omillarni inobatga olgan holda, quyidagi strategik yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur:

Har bir tuman bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligi indeksini ishlab chiqish va narx o'zgarishlariga oldindan javob beruvchi intervensiya mexanizmlarini joriy etish.

Mahsulot saqlash infratuzilmasini yangilash, ayniqsa, zamonaviy sovitkichli omborlar va konteyner logistikasini rivojlantirish.

Mintaqaviy logistikani transformatsiya qilish orqali "Ishlab chiqaruvchi – saqlovchi – tarqatuvchi – iste'molchi" zanjirining ichki samaradorligini oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida agrosanoat klasterlari va kooperatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali ishlab chiqaruvchilarning bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Mahalliy bozorlarda raqamli narx monitoring tizimini joriy qilish va mintaqaviy logistika markazlarini yagona axborot tizimida boshqarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO. (2022). The State of Food Security and Nutrition in the World. Rome: FAO Publications.
2. OECD. (2021). Agri-food systems for sustainable development. Paris: OECD Publishing.
3. World Bank. (2020). Resilient Food Systems. Washington D.C.: World Bank Publications.
4. G'afurov, U.V. (2021). Oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy bozorlar. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. Mullabayev, B.B. (2022). Agrologistika infratuzilmasini hududiy rivojlantirish yo'llari. NamDU ilmiy jurnali.
6. Agromarkaz. (2022). Oziq-ovqat mahsulotlari bozoridagi holat (Namangan viloyati misolida). Tahliliy hisobot.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyundagi PQ-263-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida".

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyundagi PQ–263-sonli qarori “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Milliy strategiya”.
11. OECD. (2021). Agri-food Systems for Sustainable Development. Paris: OECD Publishing.
12. UNDP Uzbekistan. (2022). Supply Chain Infrastructure Mapping for Sustainable Food Security. Tashkent.
13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). Iste’mol narxlari indeksleri va oziq-ovqat mahsulotlari narxlari statistik byulleteni. Toshkent.
14. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023). Chakana savdo tarmoqlari va narxlar bo‘yicha yillik hisobot.
15. Namangan viloyati Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi (2023). Viloyat kesimida ishlab chiqaruvchilar va infratuzilma sub’yektlari haqida ma’lumotnoma.
16. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi (2023). Hududiy oziq-ovqat zaxiralari va omborxona infratuzilmasi to‘g‘risidagi tahliliy hisobot.